**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH DAVLAT QO'MITASI RAISINING BUYRUG'I**

2022 yil "10" may 181 - son Toshkent sh

# Yovvoyi hayvonlarni tutishga doir 2022-yilga qo'shimcha kvotani tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "Ov qilish va ovchilik xo'jaligi to'g'risida"gi qonunlarining hamda Fanlar akademiyasining 2022-yil 29-apreldagi 4/1255-1058-son xulosasiga muvofiq va biologik resurslardan oqilona foydalanish maqsadida, **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Yovvoyi hayvonlarni tutishga doir 2022-yilga qo'shimcha kvota 1-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va yo'qolib borayotgan yovvoyi hayvonlar turlarini tabiiy yashash muhitidan ajratib olishga 2022-yilga qo'shimcha kvota 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Bioxilmaxillikni asrash boshqarmasi (Sadikov):

O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va yo'qolib borayotgan yovvoyi hayvonlar turlarini tabiiy yashash muhitidan ajratib olishni kelishish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga belgilangan tartibda taqdimnoma kiritsin;

O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan yovvoyi hayvonlarni tabiiy muhitdan ajratib olishga doir ruxsatnoma uning amal qilish muddati tugagach (o'n kun ichida) tabiatdan foydalanuvchilar tomonidan Davlat ekologiya qo'mitasiga ajratib olingan yovvoyi hayvonlar haqidagi hisobot bilan birga qaytarilishini ta'minlasin;

yovvoyi hayvonlarni tutishga doir qo'shimcha kvotani Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar kesimida taqsimlasin;

zarurat tug'ilganda vaqtincha ruxsatnomalarni berilishini to'xtatish, ov mavsumini yopish, ov normalari va muddatlarini o'zgartirish bo'yicha taklif kiritsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalari yovvoyi hayvonlarni tutishga doir ruxsatnomalarni kvota doirasida bersin;

yovvoyi hayvonlarni tutishga doir ruxsatnoma uning amal qilish muddati tugagach (o'n kun ichida), tabiatdan foydalanuvchilar tomonidan ruxsatnomani bergan ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hududiy organiga tutilgan yovvoyi hayvonlar haqidagi hisobot bilan birga qaytarilishi shuningdek, barcha hisobotlar umumlashtirilgan holda Davlat ekologiya qo'mitasiga taqdim etilishi ta'minlansin.

4. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorat bo'yicha inspeksiyasi (Tagayev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalari hayvonot dunyosi obyektlarini tabiiy muhitdan ajratib olinishida tabiatni muhofaza qilish qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirsin.

5. Tashkiliy nazorat va tahlil boshqarmasi (Xaytboyev) mazkur buyruqni Davlat ekologiya qo'mitasining tegishli tarkibiy va hududiy bo'linmalariga ma'lumot va ijro uchun yetkazsin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish raisning birinchi o'rinbosari U.Xalilov zimmasiga yuklansin.

**Rais** **N.Oblomuradov**

Davlat ekologiya qo`mitasi
raisining 2022 yil 10-maydagi
181 -sonli buyrug`iga
1-ilova

**2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Qizil Kitobiga kiritilmagan yovvoyi hayvonlarni tutishga doir ajratilgan qo‘shimcha kvota**

| № | Hayvon turlari | O‘lchov birligi | Fanlar akademiyasi tavsiyasi |
|---|---|---|---|
| | | | Jami |
| 1 | Yovvoyi cho‘chqa Ёввойи чўчка (кабан) | bosh | 150 |
| 2 | Sibir tog‘ echkisi Сибирь тоғ эчкиси (горный козёл (козёл сибирский)) | bosh | 10 |
| 3 | Bo‘rsiq Бўрсиқ (барсук) | bosh | 40 |
| 4 | Tulki Тулки (обыкновенная лисица) | bosh | 100 |
| 5 | Jayra Жайра (дикобраз) | bosh | 10 |
| 6 | Qum tovushqoni Қум товушқони (заяц толай) | bosh | 2000 |
| 7 | Chiyabo‘ri Чиябўри (шакал) | bosh | 5 |
| 8 | Bo‘ri Бўри (волк) | bosh | 40 |
| 9 | Zarafshon qirg‘ovulidan boshqa barcha kenja turlarning tuxumlari Зарафшон қирғовулидан бошқа барча кенжа турларнинг тухумлари (яйца Фазанов всех подвидов кроме зарафшанского) | dona | 500 |
| 10 | Kaklik Каклик (кеклик) | bosh | 665 |
| 11 | Olaqanot Олақанот (свиязь) | bosh | 60 |
| 12 | Qizil o‘rdak, ang‘irt Қизил ўрдак, анғирт (атайка) | bosh | 20 |
| 13 | Churraklar Чурраклар (чирки, кроме мраморного) | bosh | 1000 |
| 14 | Katta qorabuzov Катта қорабузов (большой баклан) | bosh | 250 |
| 15 | Gov kaptar Гов каптар (вяхирь) | bosh | 200 |
| 16 | Suqsun Суқсун (широконоска) | bosh | 100 |
| 17 | Yovvoyilashgan xonaki kaptar Ёввойилашган хонаки каптар (одичавшие домашние голуби) | bosh | 1350 |
| 18 | Bedana Бедана (перепел) | bosh | 1500 |
| 19 | Suv botqoq qushlari Сув ботқоқ қушлари (Болотная дичь) фақат Бекас ва Гарчнетга | bosh | 1500 |
| 20 | Mayna Майна | bosh | 30 |
| 21 | Qarg‘a Қарға (ворона) | bosh | 60 |
| 22 | Qizilto‘sh Қизилтўш (зяблик) | bosh | 100 |
| 23 | Dasht to‘rg‘ayi Дашт тўрғайи (степной жаворонок) | bosh | 250 |
| 24 | So‘fito‘rg‘ay Сўфитўрғай (хохлатый жаворонок) | bosh | 350 |
| 25 | Dala to‘rg‘ayi Дала тўрғайи (полевой жаворонок) | bosh | 250 |
| 26 | Odiiy qizilbosh chumchuq Одиий қизилбош чумчук (обыкновенная чечевица) | bosh | 300 |
| 27 | Rang-barang chipor ilon Ранг-баранг чипор илон (полоз разноцветный) | bosh | 5 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 28 | Turkeston agamasi Туркестон агамаси (Туркестанский стеллион) | bosh | 5 |
| 29 | Ssink gekkoni Сцинк геккони (Сцинковый геккон) | bosh | 5 |
| 30 | Uzunoyoq ssink Узуноёқ сцинк (Длинноногий сцинк) | bosh | 5 |
| 31 | Qurbaqa Қурбақа (лягушка) | bosh | 60 |
| 32 | Qizilko'z Қизилкўз (чавоқбалик, плотва) | bosh | 350 |
| 33 | Zog'ora Зоғора (сазан) | bosh | 90 |
| 34 | Abbotina Абботина | bosh | 60 |
| 35 | Oqsla Оқсла (судак) | bosh | 30 |
| 36 | Qorabaliq Қорабалик (Маринка) | bosh | 280 |
| 37 | Kumush tovonbaliq Кумуш товонбалик (карась) | bosh | 90 |
| 38 | Qirraqorin Қирракорин (Востробрюшка) | bosh | 80 |
| 39 | Turkiston qumbalig'i Туркистон қумбалиғи (Туркистанский пескарь) | bosh | 60 |
| 40 | Ko'zli taxirbaliq Кўзли тахирбалик (Глазчатый горчак) | bosh | 70 |
| 41 | Zarafshon yalangbalig'i Зарафшон ялангбалиғи (Triplophysa uranoscopus) | bosh | 7 |
| 42 | Tyan-Shan yalangbalig'i Тянь-Шань ялангбалиғи (Triplophysa elegans) | bosh | 8 |
| 43 | Kulrang yalangbaliq Кулранг ялангбалик (Triplophysa dorsalis) | bosh | 18 |
| 44 | Xolsik tezsuzar Холсик тезсузари (Albiirnoides holciki) | bosh | 7 |
| 45 | Farg'ona yalangbalig'i Фарғона ялангбалиғи (Triplophysa ferganaensis) | bosh | 10 |
| 46 | Messor laboriosus – Муравей жнец красногрудый | bosh | 50 |
| 47 | Messor muticus –Муравей жнец степной | bosh | 50 |
| 48 | Cataglyphis aenescens –Степой бегунок | bosh | 50 |
| 49 | Cataglyphis setipes –Щетинистоногий фаэтончик | bosh | 50 |
| 50 | Camponotus turkestanicus –Туркестанский муравей древоточец | bosh | 50 |
| 51 | Camponotus xerxes –Муравей древоточец пустынный | bosh | 50 |
| 52 | Camponotus fedtschenkoi –Муравей древоточец Федченко | bosh | 50 |
| 53 | Camponotus lameerei-Тугайный муравей-древоточец | bosh | 50 |
| 54 | Tetramorium armatum -Дерновый муравей | bosh | 50 |
| 55 | Formica glauca-Степной прыткий муравей | bosh | 50 |
| 56 | Pheidole koshewnikovi – Муравей фейдоле | bosh | 50 |
| 57 | Lasius neglectus – Лазиус светлобурый | bosh | 50 |
| 58 | Tapinoma koshewnikovi-Муравей Кожевникова | bosh | 50 |
| 59 | Мотыль | t | 3 |
| 60 | Yashil bronza qo'ng'izi Яшил бронза қўнғизи | bosh | 228 |
| 61 | May qo'ng'izi Май қўнғизи | bosh | 2664 |
| 62 | Karam kapalagi Карам капалаги | bosh | 228 |
| 63 | Iyun xrush qo'ng'izi Июн хруш қўнғизи | bosh | 228 |
| 64 | Chigirtka lichinkalari Чигиртка личинкалари | bosh | 912 |
| 65 | Osiyo bargxo'ri Осиё баргхўри | bosh | 228 |
| 66 | Kolorado qo'ng'izi Колорадо қўнғизи | bosh | 228 |
| 67 | Kana Кана (клоп солдатик) | bosh | 228 |
| 68 | Пчеловидка обыкновенная | bosh | 228 |
| 69 | Tut ipak qurti kapalagining tuxumi Тут ипак қурти капалагининг тухуми | bosh | 228 |

Davlat ekologiya qo`mitasi raisining
2022 yil 10-maydagi
181 -sonli buyrug`iga
2-ilova

**O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va yo'qolib borayotgan yovvoyi hayvonlar turlarini tabiiy yashash muhitidan ajratib olishga 2022 yilga ajratilgan qo‘shimcha kvota**

| № | Hayvon turlari | O‘lchov birligi | O‘zR FA tavsiyasi | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Jami | |
| 1 | Qizilqum arxari - Қизилкум архари (Баран Северцова молодняк) | bosh | 4 | Nurota qo`riqxonasidan. Faqat naslchilik maqsadda |
| 2 | Morxo‘r - Морхўр (винторогий козел молодняк) | bosh | 4 | Falcon MCHJ ga qarashli Surxandaryo qo`riqxonasidan. Faqat naslchilik maqsadda |